

**SPORTCHILAR VA JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI
INGLIZ TILIGA O‘RGATISHNING AYRIM USULLARI**

Nargiza Maxmudova

Farg‘ona davlat universiteti, katta o‘qituvchisi

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda chet tillarni o‘rganishga katta e’tibor berib kelinmoqda. 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 1875-sonli qarori chiqqanidan so‘ng barcha soha korxonalarida va mutaxassisligi ingliz tili bo‘lmagan o‘qituvchilarga ingliz tilini o‘rganish davr talabi bo‘lib qoldi.

Hozirgi kunda nafaqat maktab, litsey, kollej o‘quvchilari va oliy yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi hodimlarga ham chet tilini, hususan ingliz tilini o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan. Buning sababi o‘zbek sporti va jismoniy madaniyat sohasi bugungi kunda jahonga tanilmoqda. Har bir sportchilarimiz chet tillaridan bilim darajasiga ega bo‘lishi, albatta, jismoniy madaniyat va tarbiya o‘qituvchilari ham e’tiboridan chetda qolmaydi. Jismoniy tarbiya va madaniyati o‘qituvchilarining hamda sportchilarning yoshi har xil bo‘lib, albatta, bu yoshda chet tillarini o‘rganish ular uchun katta muammodek ko‘rinadi. Til o‘rganish ham yosh davralriga bog‘liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o‘zlashtiradilar. Chet tilini o‘rganishda xotira asosiy omil hisoblanib, jismoniy tarbiya mutaxassisligiga oid yangi so‘z va frazalarni yodlash, o‘rganilgan mavzuni yodda saqlab qolish orqali til o‘rganiladi. Bundan tashqari ba’zi professor o‘qituvchilar yoshligidan til o‘rganmaganligi sababli chet tili ular uchun chiqib bo‘lmas tog‘dek ko‘rinadi. Bunday holatda o‘qitishning qanday metodlari, qanday materiallardan, qanday ko‘rsatma va manbalardan foydalanish samarali natija berishi mumkin? Jismoniy tarbiya va madaniyati o‘qituvchilarini ingliz tiliga o‘rgatishda ularni yosh darajalarini inobatga olib guruhlarga ajratish va til o‘rgatishda sodda usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini ingliz tiliga o‘rgatishda quyidagicha usullardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni ingliz tilini umuman bilmaydigan shaxslar uchun chiqarilgan xorijiy darsliklardan foydalanish xodimlarning ingliz tilini o‘rganishlarini yanada osonlashtiradi. Bunday adabiyotlarda kundalik sodda frazalar berilgan bo‘lib, har qanday shaxs osonlikcha eslab qoladi. Masalan: - Hello! I’m Firdavs. What’s your name? - My name’s Zarifa.- Hello, Zarifa, kabi kichik dialoglarni o‘rgatishdan boshlash va berilgan mavjud materiallarning audio variantlarini qayta-qayta

eshittirish, berilgan materiallarni yozma mashqlarini bajarish va o‘rganilgan materiallarni og‘zaki nutqda qo‘llash yaxshi samara beradi.

Darsda grammatik qoidalarni o‘rganishlari va tushunishlarida qiyinchilik tug‘iladi. Fe'l zamonlari, olmoshlar yoki egalik qo‘simechasi ‘s ni tushuntirishda kichik va sodda mashqlarni qo‘llab o‘rgatishdan foydalangan ma’qul. Masalan, **he/she**, **his/her** olmoshlarini o‘rgatishda avvalo ularning mazmunini tushuntirib berish kerak. Barcha olmoshlarini birdaniga o‘rgatish yaxshi samara bermaydi. Mustaqil ravishda gap tuzishni o‘rgatishda **It’s ...**, **I have got ...**, **He/She has got ...** kabi birikmalarni o‘rgatishdan boshlash o‘rganuvchilarning mustaqil ravishda sodda gaplar tuzish qobiliyatini shakllantiradi va bunday iboralarni mustaqil ravishda og‘zaki nutqda qo‘llay oladilar. Masalan, **My family** mavzusida o‘zlarining oilalarini tasvirlashga o‘rgatish, **I’m a ...**, **He’s a ...**, **She’s a ...** kabi birikmalarini qo‘llab oila a’zolari va o‘zlarining kasblarini ayta boshlaydilar. Har bir mashq bajarilishida audio materiallarni qo‘llash eshitish qobiliyatini o‘stiradi va til o‘rganilishida yaxshi natija beradi.

Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlardan foydalanish va harakat o‘yinlari davomida sport va jismoniy tarbiya atamalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Ingliz tilida sport o‘yinlari bilan bog‘liq fe'llarni o‘rganish zarur. Bunday fe'llar: **play**, **go** va **do**, ya’ni ularning tarjimasi: **o‘ynash**, **boring** va **qiling**, ularni almashtirish mumkin emas: **Boring** bilan tugaydigan mashg’ulotlar va sport turlari bilan foydalaniladi **-ing**... Fe'l **boring** bu yerda biz ushbu sport turi bilan shug’ullanish uchun biron joyga borishni nazarda tutamiz: *suzishga borish*. **Qiling** ko‘ngilochar mashg’ulotlarda va individual, jamoaviy bo‘lmagan sport turlari yoki jang san’ati kabi to‘p ishlatilmaydigan sport turlari bilan foydalaniladi, masalan: *yengil atletika*, *karate bilan shug’ullaning*. **O‘ynang** odatda jamoaviy sport turlari va to‘p yoki shunga o‘xshash narsalarga muhtoj bo‘lgan sport turlari bilan foydalaniladi (shayba, disk,...). Ikki kishi yoki jamoalar o‘zaro raqobatlashadigan tadbirlar: *futbol o‘ynash*, *shaxmat o‘ynash*.

Boring (go)	Qiling (do)	O‘ynang (play)
suzib yurish	aerobika	badminton
Yugurish	gimnastika	stol tennisi
Yurish	taekvondo	futbol
chang’I	dzyudo	basketbol

Ingliz tili mashg’ulotlarida informatsion texnologiyalar va multimedia vositalari darsning ko‘rgazmalilagini oshiradi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dialoglar bo‘yicha bajarilgan mashqlarga oid video materiallarni qo‘llash, audio materiallarni eshitgan holda individual ravishda talaffuz bo‘yicha mashqlarni bajarishga jalb qilish, uyga berilgan vazifalarning ham mavzu bo‘yicha bo‘lishi va har bir darsda o‘tilgan mavzuni takrorlash,

mustahkamlash ingliz tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Shu bilan birga o‘qituvchining til o‘rganuvchilarni ingliz tiliga qiziqtirishi muhim shartlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-2126032> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son)
2. Tim Falla and Liz and John Soars. Headway beginner English course. Oxford University Press, 2006.
3. <https://stazip.ru/uz/berries-and-fruits-in-greenhouses/s-kakimi-glagolami-upotreblyaetsya-do-play-go-nazvaniya-igr-i-vidov/>
4. Yo‘ldashev, I. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA SAMARALI YO ‘NALTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(19), 7-15.
5. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLDA–STRATEGIYA VA TAKTIKA. Научный Фокус, 1(9), 274-279.
6. Po‘latova, S., & Xudaybergenova, E. (2024). Shaxsning individual psixologik-xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(1), 1-3.
7. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLCHILAR SPORT TRENIROVKASINING VOSITALARI. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 207-213.
8. Po‘latova, S. (2023, November). KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
9. Po‘latova, S. (2023, November). JISMONIY TAYYORGARLIK VA UNI SHAKLLANTIRISH. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
10. Po‘latova, S. (2023, November). O ‘QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO ‘YICHA MUNTAZAM MASHG ‘ULOTLARGA BARQAROR QIZIQISH VA KO ‘NIKMALARNI TARBIYALASH. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
11. Po‘latova, S. (2023, November). VOLEYBOLCHILARNI MUSOBAQA JARAYONLARIGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".